

INGLIZ TILIDA IJTIMOIY MEDIA QISQARTMALARINI TUSHUNISH MUAMMOLARI

Shodiyev Jahongir Yusuf o'g'li

Master student of Navoiy State Pedagogical University

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilida ijtimoiy media qisqartmalarini yaxshiroq tahlil qilishga qaratilgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, qisqartmalarni tushunish muammolari tahlil qilinadi va ular uchun o'zbek tiliga mumkin bo'lgan tarjimalari berilgan. Bu tilshunoslikda o'rganilishi va tadqiq qilinishi lozim bo'lgan eng muhim mavzulardan biri ekanligi aytiladi [3]. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi qisqartmalarining lug'aviy tarjima o'ziga xosliklari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: morfema, derivatsiya, qorishma, konversiya, birikma, qisqartmalar, ijtimoiy media.

Аннотация: Эта статья посвящена тому, чтобы помочь лучше понять английские аббревиатуры социальных сетей. Если быть точнее, анализируются проблемы понимания аббревиатур и даются возможные их переводы на узбекский язык. Говорят, что это одна из самых важных тем для изучения и исследования в языкознании [3]. В данной статье показаны лексико-переводные особенности английских и узбекских акронимов.

Ключевые слова: морфема, деривация, смешение, чеканка, конверсия, компаундирование, акронимы, социальные медиа.

Abstract: This article is devoted to helping to gain a better understanding of English social media acronyms. To be more precise, it analyses the problems of understanding acronyms and gives possible translations for them in the Uzbek language. It is said that it is one of the most important topics to be studied and researched in linguistics [3]. This article demonstrates lexical translational peculiarities of English and Uzbek acronyms.

Keywords: morpheme, derivation, blending, coinage, conversion, compounding, acronyms, social media.

Zamonaviy jamiyat odamlarning muloqot uslublarini tubdan o'zgartirdi. Bugun biz nafaqat Internetdan qulay usullaridan foydalana olamiz, balki biz ushbu global tarmoqning bir qismiga aylandik. Ijtimoiy tarmoqdagi rivojlanishlar, zamonaviy davrga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ijtimoiy media saytlari insonlar dunyoning

turli burchaklaridan muloqot qila oladigan va hattoki xis tuyg'ularini ifodalay oladigan virtual muloqot usuliga aylandi.

Ijtimoiy media tushunchasi hamkorlikdan foydalanadigan odamlarni to'plash uchun ishlatiladigan atamadir. Hozirgi kunda ko'plab ijtimoiy media tarmoqlari mavjud jumladan: Instagram, Facebook va Twitter va boshqalar. Bu dasturlar orqali odamlar ko'p narsalarni olishlari mumkin masalan ma'lumot, do'st va boshqalar.

Hozirgi kunda ijtimoiy media dasturlarida qisqartmalardan foydalanish til bilan bog'liq ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Bu qisqartmalrni ba'zilarini xattoki lug'atdan topish ham qiyin. Bu kabi qisqartmalar ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lmagan oddiy odamlar uchun tushunarsiz bo'lib bormoqda.

Ba'zi qisqartma va jargonlardan foydalanish, odamlarni ma'lum bir so'zdan uning ma'nosini anglamay foydalanishga majbur qilmoqda. Natijada esa bu til muloqoti bilan bog'liq ba'zi tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Allan va Burrige (2006) o'z kitoblarida jargon odatiy so'z ekanligini aytishadi ularning fikricha odamlar his-tuyg'ularini ko'proq ifodalash uchun jargon yoki qisqartmalardan foydalanishadi.

Kridalaksana (1989) ning fikricha bir so'zni qisqartmasi boshqa so'zni qisqartmasi bilan birikib yangi so'z hosil qiladi. Qisqartmalarda bu so'zlarning ba'zilari allaqachon lug'atda keltirilgan.

Jargon so'zlarning qisqartmalari ham hozirgi kunda internet foydalanuvchilari tomonidan ko'p qo'llanilmoqda. Jargon - bu nostandart so'zlar va iboralar tilining bir turi, masalan, GR8,SMH, CHALE va XOXO. Jargon qisqartmalaridan foydalanishning o'ziga xos qulayliklari ham mavjud, chunki ular odatda boshqalar uchun oson talqin qilinadi va ko'p vaqtni tejaydi.. Ijobiy va salbiy jargonlar asosan Facebook va Twitter tarmoqlarida ko'p ishlatiladi. (Ahmad.etl, 2014)

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning fikricha, jargon va qisqartmalar rasmiy til uslubida qo'llanilmaydi shuning uchun bu kabi so'zlarning ba'zilari lug'atlarga kiritilmagan va ular faqatgina internet tarmog'idan foydalanuvchi odamlar uchungina tushunarlidir.

Ijtimoiy tarmoqlar va elektron aloqa usullari dunyo bo'ylab aloqaning jadal rivojlanayotgan usullaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlarning barcha platformalari fikr bildirish uchun juda samarali hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda ijtimoiy tarmoqlar yosh avlod orasida juda mashhur bo'lib bormoqda (Xayrutdinov, Mukhametzyanova & Gaysina, 2017).

Mutaxassislar va ijtimoiy tarmoqlarning tez-tez foydalanuvchilari odatda jargonlar, va qisqartmalardan foydalangan holda maxsus usullar bilan xabarlar va sharhlar yozishga moyildirlar. Ushbu tadqiqot asosan kommunikativ qisqartmalarga qaratilgan. Ushbu qisqartmalardan xabardor bo'lish kommunikativ jihatdan malakali mutaxassis bo'lish va tilni mukammal bilish uchun juda zarurdir (Savignon, 1987).

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra hozirgi kunda keng tarqalgan Facebook ijtimoiy tarmog'ida ham qisqartma va jargonlarni ko'rishimiz mumkin.

Facebook ijtimoiy tarmog'i ma'lumot, g'oya va fikr almashish uchun deyarli barcha soha vakillariga qulaylik tug'dirmoqda. Ushbu tarmoq orqali siz chet tilini ham bemalol o'rganishingiz mumkin. Facebook foydalanuvchilari tomonidan qisqartmalardan foydalanish ko'pgina til bilan bo'liq muammolarga olib kelmoqda. Chunki bunday qisqartmalar morfologik, sintaktik va lug'at jihatdan til talablariga mos emas.

2017-yil 29-noyabrda Iordaniya Bengkulu universtiteti olib brogan tadqiqotiga ko'ra, ushbu universtitetda Facebook ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchi talabalarning 65% muloqot jarayonida qisqartmalardan foydalanishi aniqlandi. Misol uchun: tq= thank you, yoki bff= best friend forever.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqartma so'zlardan foydalanish hozirgi kunda yoshlar orasida keng tarqalib bormoqda. Bunday qisqartmalardan foydalanish va tushunish ko'pchilik uchun ko'plab noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Yoshlarga o'zlari foydalanayotgan til bilan bog'liq yetarlicha bilim va ko'nikmalar berilsa, yuqorida keltirib o'tilayotgan muammolar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Armstrong, N. (2005). Translation, linguistics, culture: A French-English handbook (Vol. 27). Multilingual Matters.
2. Caputi, P., Foster, H., & Viney, L. L. (2006). Personal construct psychology: New ideas. New York: John Wiley & Sons.
3. Carey, S. (2009). The origin of concepts. Oxford University Press. De Cat, C. (2007). French dislocation: Interpretation, syntax, acquisition (No. 17). Oxford University Press.
4. Depecker, L. (2002). L'invitation de la langue: Le choix des mots nouveaux [The invitation of the language: The choice of new words]. Paris, France: Armand Colin-Larousse.
5. Giraud, H., & Grainger, J. (2003). On the role of derivational affixes in recognizing complex words: Evidence from masked priming. Trends in Linguistic Studies and Monographs, 151, 209-232.
6. Haste, H., & Abrahams, S. (2008). Morality, culture and the dialogic self: Taking cultural pluralism seriously. Journal of Moral Education, 37(3), 377-394.